

## KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA ENANTIOSEMIYA HODISASI.

Achilova Ozoda Farhodovna

*Filologiya fanlari bo'yicha doktori, dotsent*

**Ostanov Jamoliddin Sharofitdin o'g'li**

*Samarqand davlat chet tillar institute 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada koreys va o'zbek tillaridagi enantiosemiyani ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Enantiosemiya hodisasining lisoniy tabiatini va maqomi, lisoniy mexanizmi va unda ishtirok etuvchi omillar, nutqiy namoyon bo'lism jihatlari hamda yondosh hodisalarga munosabati, turlari kabi masalalar leksik va frazeologik birliklar misolida tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** enantiosemiya, enantiosemiya xususiyatlari, og'zaki enantiosemiya, sema qarama-qarshiligi, qarama-qarshi semalar.

### Kirish.

XX asrning so'nggi choragida tilshunoslikda til va madaniyat masalasining kun tartibiga chiqishi, aslida, xalqlarning milliy o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurni yangilashga bo'lgan ehtiyoji natijasidir. Ziddiyat kategoriyasining o'ziga xos namoyon bo'lism shakli sanalgan enantiosemiya (bir lisoniy birlik ma'nolari o'rtaсидаги zidlanish) hodisasi g'arbda ancha avval tilshunoslarning, shuningdek, faylasuflarning ham e'tiborini torta boshlagan. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng tilshunosligmizda o'zbek tilini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan, tilimizning turkona tabiatini ochib berishga yo'naltirilganlingvistik muammolarga, xususan, lisoniy ziddiyat masalasiga alohida e'tibor berila boshlandi. Lisoniy birlik ma'nolari o'rtaсидаги zidlanish – enantiosemiya yuzasidan jahon tilshunoslida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, g'arb tilshunoslida barqarorlashgan qarashga ko'ra enantiosemiya ilk bor chek tilshunosi V.I.Shertsl tomonidan tadqiq etilgan. Enantiosemiya hodisasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda unga quyidagicha yondashilgan: 1) enantiosemiya antonimiya, omonimiya yoki polisemiya kabileksik hodisalarning alohida ko'rinishi sifatida; 2) enantiosemiya polisemiya va omonimiya, polisemiya va antonimiya, omonimiya va antonimiyaning o'rtaсидаги hodisa sifatida; 3) enantiosemiya leksik sathning alohida hodisasi sifatida. Koreys va o'zbek enantiosemik birliklarning lisoniy va nutqiy jihatlarini, leksik sathdagi o'rnini shaxs omili asosida aniqlash, leksik va frazeologik enantiosemianing turlari hamda namoyon bo'lism xususiyatlarini ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, chiqarilgan nazariy xulosalar nafaqat o'zbek tilining hozirgi davrida ro'y bergen ma'noviy yangilanishlar, balki uning tarixiy taraqqiyotida yuz bergen semantik o'zgarishlar yuzasidan mavjud ma'lumotlarni kengaytiradi va to'ldiradi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA.

## "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Enantiosemiya leksik sathning muayyan o'ziga xosliklarga ega bo'lgan hodisasisidir. U bir so'zda ikki qarama - qarshi ma'noning mavjudligiga asoslanadi. Enantiosemiya yunonchada en "ichdag'i", anti "qarama-qarshi", sema "belgi" degan ma'noni anglatadi. Lngistik atama sifatida 1883 yilda chex tilshunosi V.Sherts'l tomonidan tilshunoslik ilmiga olib kirilgan. Olim mazkur lisoniy hodisani enantiosemiya deb atar ekan, ushbu atama ostida so'zlar o'rtasidagi qarama-qarshi ma'nolarni emas, balki bir so'zdagi o'zaro zid ma'nolarni tushunish lozimligini ta'kidlaydi. V.Sherts'l bilan deyarli bir vaqtida nemis tilshunosi K.Abel' ham mazkur til hodisasini tadqiq etib, boshlang'ich enantiosemiya gipotezasini ilgari surdi hamda uning yuzaga kelish sabablarini lotin, nemis, frantsuz, arab va boshqa tillar misolida ko'rsatib berdi. Bu ikki tilshunos qarashlaridagi umumiylig shundaki, ularda qadim so'zlar semantik strukturasining qorishiq tabiatli ekanligi, aksar so'zlarga ko'p ma'nolilik va ma'noviy noaniqlik xos bo'lgani enantiosemiya yuzaga kelishining omillaridan biri deb ko'rsatiladi. enantiosemiyani so'z ma'nolari o'rtasidagi zidlik yuzaga keltiradi. Masalan, hozirgi o'zbek tilidagi oqshom so'zining "quyosh botishi bilan tun boshlanishi o'rtasidagi g'ira-shira yorug' payt" va "kech, kechqurun" ma'nolari o'rtasida enantiosemiya mavjud. Qiyoslang: Quyosh botgan, lekin kun hali yorug', har yoqqa oqshom sukunati cho'zilgan. Daraxtlarning uchlari asta qimirlaydi (Oybek, "Qutlug' qon"); Jisman zaifligiga qaramay, yumushni ko'p qilar, har oqshom o'z bolalari bilan tancha atrofini to'ldirib, kitob o'qir edi (Oybek, "Qutlug' qon"). Evfemiya esa ma'lum sabablarga ko'ra taqiqlangan yoki madaniy muloqot doirasidan chetda bo'lgan so'zning yumshatilgan, madaniy muloqot doirasiga xoslangan ifodasidir. Masalan, tug'moq so'zining madaniy muloqot talabi bilan ko'zi yorimoq tarzidagi yumshatilgan ifodasini evfemiyaga misol tariqasida ko'rsatish mumkin: – Tog'ang balnisaga ketgan, – dedi Hojar buvi qandaydir tashvish bilan. – Kelin oyingning ko'zi yoriydigan (O'.Umarbekov, "Odam bo'lish qiyin"). Yuqoridagi enantiosemik so'zda evfemiklik bo'limganidek, mazkur evfemik misolda ham enantiosemiklik mavjud emas. Keltirilgan misollarda mazkur hodisalarning o'zaro yondoshligini ko'rsatuvchi biror jihat ko'zga tashlanmaydi. Masalan, Umri joningizga xudo baraka bersin" deb u yuzimdan, bu yuzimdan o'pdi. O'payotganda og'zimdan kelgan "muattar" hiddan xiyol Jumladan, azamat, ofarin, yashang, qoyil so'zları ana shunday xususiyatga ega. Masalan: – Mening o'g'ilim xo'-o'-p orzu-havasli chiqdi-da, baraka topkur! Yaqinda to'y qilaman deb, yap-yangi "Neksiya"sinı sotib yubordi, azamat! – Mening jiyanimni aytmaysanmi? To'y qilaman deb, uy-joyini sotdi! Endi ko'chada yuribdi! (O'.Hoshimov, "Daftar hoshiyasidagi bitiklar"). Mazkur parchadag azamat so'zi aslida "maqtov" ma'nosini anglatadi. Korey tilida enantiosemiyaga quydagi holatlarda uchraydi. 희희 so'zi axmoqona tabassum va quvonchli tabassum ma nosida ishlatilib keladi. Masalan: 눈을 맞으며 희희를 보인다.

Ko'z oldiga keltirganda quvonchli tabasumi ko'rindi.

가끔 누군가와 대화할 때 희희를 보인다

## "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

Kimdir bilan suhbatlashganda bazan yuzida axmoqona tabassum ko'rindi. Quydagi 흥풍 so'zi yaxshi va yomon hosil ma'nosida o'zaro enantiosemiyaga misol bo'lishi mumkin.

Masalan: 파일들은 풍부한 비 때문에 좋은 흥풍을 얻었습니다.

Ko'p yomg'ir sababli yaxshi hosil olishdi

리라는 작년에 흥풍으로 인해 경제적인 문제를 겪었습니다.

Lira o'tkan yili yomon hosil sababli iqtisodiy muamoga uchradidi.

Shuningdek 훈유 so'zi hushbo'y o't va badbo'y o't manosida ifodalanadi.

Masalan: 주변에 많은 훈유들이 있다면, 사람의 기분은 상승할 것입니다.

Atrofda hushbo'y o'tlar ko'p bo'lsa odamni kayfiyati ko'tariladi.

최근에 집에 훈유가 무성해서, 우리는 그것을 박멸제로 뿐렸습니다.

Uy atrofida badbo'y o'tlar ko'pligi sababli ularni yo'q qilish uchun dori sepdik.

Ko'p holatlarda uchraydigan 혹 so'zini oladigan bo'lsak yengil va og'ir nafas ma'nosida ishlatilib enantiosemiyaga misol sifatida qaraladi.

Masalan: 모든 일이 끝나면 사람은 혹을 보인다.

Barcha ishlarni bajarib bo'lsa odamda yengil nafas paydo bo'ladi.

그가 자는 동안 혹가 들렸습니다.U ustayotgan paytda og'ir nafas eshiladi.

Ushbu 후리다 fe'li o'zida jalb qilmoq va haydab yubormoq ma'nosida ifodalanadi.

Masalan: 저렴한 제품을 무료로 제공하여 고객들을 후렸습니다

Arzon mahsulotlarni tekinga berish orqali mijozlarni jalb qildi.

밤에 집에 들어온 고양이를 후렸습니다.

Kechasi kirib qolgan mushukni haydab yubordi.

### XULOSA.

Enantiosemiya benihoya o'ziga xos nutqiy namoyon bo'ladi. Mazkur jarayon, asosan, so'zlovchining kommunikativ-situativ maqsadi va sub'ektiv munosabati asosida amalga oshadi va bunda ironiya, evfemiya, disfemiya hamda antifrazis kabi hodisalar bilan ma'lum munosabatdorliklarga ega bo'ladi. Masalan, evfemiya va enantiosemiya munosabatdorligi u yoki bu dag'al tushuncha ijobiy baholi so'z yoki frazeologizm bilan nomlanganda, disfemiya va enantiosemiya munosabatdorligi «so'kish», «qarg'ish» ma'noli so'z yoki frazeologizm «tahsin» ma'nosida namoyon bo'lganda ko'rindi.

Antifrazis lisoniy birlikning uzual ma'nosiga zid vogelanish usuli va u baho ijobiyashuvi hamda salbiylashuvini qamrab oladi. Antifrazis lisoniy mexanizmining harakatlantiruvchi kuchi ironiya bo'lib, u lisoniy birlikdagi okkazional ma'noga tegishli. Antifrazis va ironyaning okkazional ma'noda, nutqiy enantiosemianing uzual va okkazional ma'nolar o'rtasida bo'lishi bilan ayni hodisalar farqlanadi. O'zbek tili va koreys tilida enantiosemiya zidlanayotgan sememalarning integral va differentials semalarda to'liq yoki qisman muvofiqligi, bir yoki ikki ma'noviy

munosabatga aloqadorligi, bevosita yoki bilvosita zidlanishi, leksik qurshovining o'xhash yoki noo'xhashligiga asosan, simmetrik va asimmetrik enantiosemiyaga ajraladi. Simmetrik enantiosemiya integral va differentsial semalarda to'liq muvofiqlikni, bir ma'noviy munosabat ostidagi qarshilanishni, bevosita zidlanish va leksik qurshovning o'xhash bo'lishini taqozo etadi. Asimmetrik enantiosemiyada integral va differentsial semalar qisman muvofiq keladi, ikki ma'noviy munosabatni bildirib, bevosita zidlanmaydi, leksik qurshovi noo'xhash, zid ma'nolarning qo'llanilish darajasi har xil bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Odilov Y.R. O'zbek tilida enantiosemiya: Filol. fan. d-ri. ...diss. –T., 2016. –245 b.
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: „O'zbekiston milliy ensiklopediyasi“ Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
3. Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М.: Просвещение, 1976. – С.537.
4. Шерцль В.И. О словах с противоположными значениями (или о так называемой энантиосемии) // Хрестоматия по истории русского языка. – М.: Высшая школа, 1973. – С. 259–264.
5. Шерцль В.И. О словах с противоположными значениями (или о так называемой энантиосемии) // Филологические науки. Вып.V–VI. – Воронеж, 1883.
6. 도재학.현대국어다의어의 대립적의 미관계연구,고려 대학교 석사학위 논문, 2011.